



## BOSHLANG'ICH TA'LIMDA XALQARO BAHOLASH TIZIMIDAN FOYDALANISH

**Pirmanova Juldiz Sarsenbaevna**

*Nukus davlat pedagogika instituti o'qituvchisi*

**Annotation:** *this article describes the use of the international system of assessment in primary education, as well as its specific aspects.*

**Keywords:** *Educational Quality Assessment, Programme for International Student Assessment, tests, written work, questionnaire, oral questions, audio(video) materials preparation, competitive manpower training.*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada boshlang'ich ta'limga xalqaro baholash tizimidan foydalanish, shuningdek, uning o'ziga xos tomonlari o'z ifodasini topgan.*

**Kalit so'zlar:** *Ta'lim sifatini baholash, Xalqaro talabalarni baholash dasturi, testlar, yozma ishlari, so'rovnoma, og'zaki savollar, audio(video) materiallarini tayyorlash, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash.*

**Аннотация:** В данной статье описывается использование международной системы оценивания в начальном образовании, а также ее специфические аспекты.

**Ключевые слова:** *оценка качества образования, программа международного оценивания студентов, тесты, письменная работа, анкета, устные вопросы, подготовка аудио(видео) материалов, подготовка конкурентоспособных кадров.*

Hozirgi kunda hukumatimiz tomonidan ta'lim sohasiga juda katta e'tibor qaratilmoqda. Mamlakatimizda innovations taraqqiyot rivojlanib borayotgan vaqtida yoshlarning har tomonlama yetuk, bilimli, zamonaviy, mustaqil fikrlay oladigan bo'lib voyaga yetishi muhim ahamiyatga ega. Buning uchun 1-navbatda mamlakatda talim yuqori darajada rivojlangan bo'lishi kerak. Ijtimoiy taraqqiyotning turli bosqichlarida ta'lim jarayonini samarali tashkil etish, uning izchilligi va uzlusizligini taminlashga erishish masalalari yetuk mutafakkirlar hamda ilg'or pedagoglarning diqqat e'tiborlarini jalb qilib kelgan. Bu masala hozirgi kunda ham pedagoglarni o'ylantirib kelmoqda. Bunda ta'limni loyihalash asosiy o'rinni tutadi. Ta'limni loyihalash haqida so'z ketganda boshlang'ich ta'lim muhim ahamiyatga ega. Chunki boshlang'ich ta'lim ta'lim berishning poydevori bo'lib xizmat qiladi. Loyihalash aslida nima? Loyihalash (lot. projectus - olg'a tashlangan fikr, g'oya, obraz), nomini o'zi aytib turibdiki, kelajakda amalga oshiriladigan ishlarni rejalashtirish bo'lib, proyekt ma'lum bir hisob-kitob, chizma va boshqalarga asoslangan holda tavsiflash, bayon qilish shaklida mujassamlashgan g'oya, fikrning ifodasidir. Loyihalash ta'lim jarayonini tashkil etish va uning muvaffaqiyatli kechishini ta'minlovchi muhim shartlardan biri hisoblanadi. Ta'lim jarayonini loyihalashda o'quvchilarning umumiyligi faoliyatlarini nazorat qilish va baholash muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda o'quvchilarimizda XXI asr





ko'nikmalarini shakllantirish, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash maqsadida xalqaro baholash tizimidan foydalanish nazarda tutilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining 2017-yil 16-sentabrdagi 2017-2018 o'quv yilida ta'lim sifati monitoring tizimini yanada takomillashtirish va tashkil etish to'g'risidagi 299-sonli buyrug'ining 3-band 2-xatboshida:

Monitoring jarayonini tashkil etish, nazorat materiallari va turlarini ishlab chiqishda ilg'or xalqaro tajribalar(PISA, TIMSS va h.k.)ni o'rgangan holda milliy monitoring tizimini takomillashtirish va uning natijalari asosida o'quv-metodik jarayonni yanada rivojlantirish choralarini ko'rish;

4-bandida:

Monitoring jarayoni uchun nazorat (testlar, yozma ishlar, so'rovnama, og'zaki savollar, audio(video) materiallarini tayyorlashda ularning umumiy hajmiga nisbatan 20 % gacha o'quvchilarning psixofiziologik xususiyatlariga mos keladigan, o'quv dasturi va darsliklardan tashqari, xalqaro tajribalarda (PISA, TIMSS va h.k.) qo'llanilgan materiallardan foydalanish mumkinligi belgilab qo'yilgan. [1] Qanday xalqaro baholash dasturlari mavjud? PISA (inglizcha - Programme for International Student Assessment) – turli davlatlarda 15 yoshli o'quvchilarning savodxonligini (o'qish, matematika, tabiiy fanlar) hamda bilimlarini turli xil testlar ko'rinishida baholash bo'lib, ushbu loyiha o'quvchi yoshlarni ijodiy va tanqidiy fikrlashga, olgan bilimlarini hayotda qo'llay olish qobiliyatlariga ega bo'lishlariga yordam beradi. Aynan 15 yoshli o'quvchi yoshlarni tanlab olinishiga sabab, ko'plab mamlakatlarda ushbu yoshdagi o'quvchi yoshlarni majburiy ta'limning oxirgi bosqichiga o'tishadi. PISA dasturi esa o'quvchi yoshlarni nafaqat bilim, ko'nikma, malaka darajasini baholash, balki, ularning katta hayotga tayyorgarlik darajalarini motivatsiyalash, ishontirish va o'qish strategiyalarini mustahkamlashga asos bo'lib xizmat qiluvchi dastur hisoblanadi. Bu dastur 3 yilda bir marotaba o'tkaziladi.

PIRLS(Progress in International Reading Literacy Study – xalqaro o'qish savodxonligini o'rganishdagi yuksalish) – bu turli davlatlarda 4-sinfda tahsil oluvchi o'quvchi yoshlarning matnni o'qish va tushunish darajalari sifatini baholab beruvchi xalqaro baholash tizimidir. O'quvchilarga shunchaki o'qitish yoki yodlatish emas, balki, o'qigan ma'lumoti nima ekanligi haqida fikr yuritishga o'rgatish zarur. Buning uchun ular bilan ko'proq og'zaki savol-javoblar o'tkazish, faqatgina berilgan matn bilan cheklanib qolmasdan shunga bog'liq bo'lgan, fikrlashga –majbur qiladigan|| savollar bilan murojaat qilish lozim. Bu esa o'quvchilarning mustaqil va mantiqiy fikrlashlarini shakllantiradi hamda dunyoqarashini kengaytiradi. Ushbu sinov turi har 5 yilda o'tkaziladi.

TIMSS(Trends in Matematics and Science Study) - 4- va 8-sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy fanlarni o'qitish sifatining xalqaro monitoring bo'lib, shu fanlar bo'yicha egallagan bilim darajasi va sifatini solishtirish hamda milliy ta'lim tizimidagi farqlarni aniqlashga yordam beradi. Bundan tashqari, ta'lim mazmuni, o'quv jarayoni, o'qituvchilar salohiyati va o'quvchilarning oilalari bilan bog'liq omillar o'rganiladi.





Tadqiqot 4 yilda bir marta o'tkaziladi. ICILS( International Computer and Information Literacy Study) – bu 8-sinf o'quvchilarining axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan turli maqsadlarda, asosiy foydalanish doirasidan tashqarida samarali foydalanish uchun kompyuter asosida xalqaro baholash bo'lib, o'quvchilarining hisoblash jarayonlaridan foydalanib real dunyo muammolarini anglashi va ulardan foydalanishi muhimligining xalqaro miyosda tan olinishi hisoblanadi.

Ta'lif sifatini baholashda xalqaro baholash tizimidan foydalanish O'zbekistonga nima beradi, degan savol tug'ilishi tabiiy. Bundan maqsad, tadqiqotlarda olingan natijalar mamlakatdagi ta'lif sifati va uning xalqaro standartlarni hisobga olgan holda egallagan o'rni to'g'risida xulosalar chiqarish, milliy ta'lif tizimini isloh qilish, ta'lif mazmunini, pedagog kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish dasturlarini takomillashtirish hamda mutaxassislar tomonidan darsliklarning yangi avlodini yaratish, xalqaro standartlar darajasida yuqori iqtisodiy samaraga asoslangan milliy baholash tizimini yaratish, O'zbekistonda turli tashkilotlarning yetakchi mutaxassislarini jalg qilgan holda xalqaro tadqiqotlarda ishtiroy etish orqali mahalliy mutaxassislarimizda monitoring tadqiqotlarini o'tkazish madaniyatini rivojlantirishdan iborat.

### **ADABIYOTLAR:**

1. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning 5 ta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi.
2. A. Ismoilov, D. Norboyeva, K. Kucharova, Z. Qosimova, N. Aminova. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining savodxonligini baholash. (o'quv qo'llanma) – T.: Sharq NMAK, 2019. -94 b.
3. A. B. Panjiyev, A. A. Ismoilov, J. R. Narziyev, X. P. Ahmedov, G. O. Tog'ayeva. O'quvchilar savodxonligini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlar dasturi. (qo'llanma) – T.: 2019. -62 b.

